FILMLAR VA SERIALLAR ORQALI TIL O`RGANISHNING SAMARASI

Turg‘unboyeva Mohinur Abbosjon qizi
Guliston davlat pedagogika instituti
Tillari o‘qitish kafedrasi
Xorijiy til va adabiyot yo‘nalishi
2-kurs talabasi
Email: @mohinurturgunboyeva7@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada filmlar va seriallar orqali chet tilini o‘rganishning samaradorligi ilmiy jihatdan yoritilgan. Audiovizual vositalardan foydalanish o‘quvchilarning tilni tabiiy muhitda o‘zlashtirishiga, so‘z boyligini kengaytirishga, tinglab tushunish va talaffuz ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi ta’kidlangan. Shuningdek, kino mahsulotlari orqali madaniy bilimlarni oshirish, o‘quvchilarda motivatsiya va qiziqishni kuchaytirish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan. Maqolada filmlardan samarali foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ham bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: chet tili, film, serial, subtitr, nutqiy ko‘nikma, talaffuz, madaniyat.

Annotation: This article scientifically highlights the effectiveness of learning a foreign language through films and TV series. It emphasizes that the use of audiovisual materials helps learners acquire the language in a natural environment, expand their vocabulary, and develop listening comprehension and pronunciation skills. Moreover, it demonstrates how cinematic content can enhance cultural knowledge and increase students’ motivation and interest. The article also provides practical recommendations for the effective use of films in language learning.

Keywords: foreign language, film, TV series, subtitles, speaking skills, pronunciation, culture.

Hozirgi globallashuv davrida xorijiy tillarni mukammal bilish insonning shaxsiy va kasbiy raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omilga aylanmoqda. Tillarni o‘rganish jarayonida turli metodlar mavjud bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda filmlar va seriallardan ta’limiy vosita sifatida foydalanish keng tarqalmoqda. Ushbu yondashuv o‘quvchilarda o‘rganish jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etish imkonini beradi, ularni sun’iy o‘quv muhiti emas, balki tabiiy til muhitiga yaqinlashtiradi, shu orqali nutqiy ko‘nikmalarni yanada tezroq rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ayni paytda, xorijiy tillarni o‘zlashtirish nafaqat bugungi kunda, balki insoniyat tarixi davomida ham muhim ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy ahamiyat kasb etib kelgan. Tillarni o‘rganish mamlakatlar o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatish, madaniy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, savdo-sotiqni rivojlantirish va turli sohalarda tajriba almashishda asosiy vositalardan biri bo‘lib xizmat qilgan. Ona tilidan tashqari boshqa tilni egallash insonning dunyoqarashini kengaytiradi, turli xalqlarning madaniy merosi, urf-odatlari, tarixiy taraqqiyoti va qadriyatlarini o‘rganish imkonini yaratadi. Natijada o‘quvchi nafaqat shaxsiy bilim doirasini boyitadi, balki yashab turgan hududining ijtimoiy va madaniy taraqqiyotiga ham hissa qo‘shadi.

O‘zbekiston tarixiga murojaat qilar ekanmiz, mamlakat qadimdan geografik joylashuvi bois g‘arb va sharq madaniyatlari kesishgan hudud sifatida shakllanganini ko‘rish mumkin. Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida joylashganligi sababli bu hudud ilm-fan, savdo va madaniyat markazlaridan biri sifatida shakllandi. Uzoq yillar davomida nafaqat islomiy dunyo, balki butun mintaqa uchun ilmiy markaz bo‘lgan O‘zbekiston hududlarida turli elatlar yashagan va ular o‘zaro muloqot qilishga majbur bo‘lgan. Bu esa turli tillarni o‘rganish ehtiyojini keltirib chiqargan. Bugungi globallashuv sharoitida ham xorijiy tillarni bilish

davlatlararo aloqalar, xalqaro hamkorlik va shaxsiy muvaffaqiyatlar uchun zarur shartga aylangan. Shu bois, chet tillarni o‘rganish hozirgi davrda yanada dolzarbdir.

Chet tilini o‘rganish jarayoni ko‘pchilik uchun murakkab vazifa bo‘lib, bu haqiqat hech kimga sir emas. Chunki xorijiy tilni o‘zlashtirish nafaqat intellektual mehnatni, balki sabr-toqat, qat’iyat va muntazam mashqni ham talab etadi. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, “chet tilini o‘rganish inson miyasidagi eng qiyin faoliyat turlaridan biridir. Chunki bunda ona tilidagi lingvistik shakl va qoliplarni boshqa tilga oddiygina o‘girish bilan cheklanib qolmaydi, balki o‘sha til doirasida mustaqil ravishda fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish zarur bo‘ladi”.

Shuningdek, chet tillarini o‘rganishdagi eng katta muammolardan yana biri – barcha o‘quvchilar uchun yagona, hamma uchun mos keladigan universal metodikaning mavjud emasligidir. O‘quvchilarning ona tili, dunyoqarashi, tilni o‘rganishdagi qobiliyatlari va maqsadlaridan kelib chiqib, har biriga individual uslub tanlash talab etiladi. Tilni o‘zlashtirishda grammatik qoidalar, imlo va talaffuz me’yorlari, lug‘at boyligini kengaytirish muhim bo‘lsa-da, ularning o‘zi yetarli emas. Chunki chet tilini mukammal bilish uchun faqat til tizimini emas, balki o‘sha til sohiblarining turmush tarzi, urf-odatlari, milliy mentaliteti, xalq og‘zaki ijodi, turli davrlarga xos bo‘lgan jargon va slenglarni ham o‘rganish zarur. Aks holda, o‘rganilgan til nazariy bilimlar darajasida qolib ketishi va haqiqiy muloqotda to‘siqlarga olib kelishi mumkin.

Darsliklarda odatda tilning rasmiy, adabiy qoidalari ko‘proq o‘rin oladi, biroq hayotiy nutq amaliyotida bevosita muomala uchun kerak bo‘ladigan unsurlar yetarlicha yoritilmaydi. Shu boisdan ham tilni o‘rganishda qo‘shimcha usullardan foydalanish muhim hisoblanadi. Masalan, til muhitiga kirish maqsadida o‘sha tilda so‘zlashuvchi mamlakatga borib tajriba orttirish, til egasi bo‘lgan insonlar bilan jonli suhbatlar qurish, badiiy adabiyotlarni o‘qish, xorijiy musiqalarni tinglash, radio va podkastlardan foydalanish til o‘zlashtirish jarayonini ancha samarali qiladi.

Bundan tashqari, o‘rganilayotgan tildagi kino va seriallarni tomosha qilish ham eng qulay va samarali usullardan biri sanaladi. Chunki ular nafaqat so‘z boyligini boyitadi, balki turli nutq ohanglari, real hayotiy vaziyatlarda ishlatiladigan iboralar, muloqot madaniyatini ham singdiradi. Shuningdek, filmlar orqali o‘quvchilar o‘zini tabiiy muhitda his qiladi, turli lahjalarni farqlashni o‘rganadi va tilni tezroq o‘zlashtiradi.

Filmlar va seriallar chet tili ta’limida qo‘shimcha metod sifatida o‘ta samarali vosita hisoblanadi. Ular o‘quvchilarga tilni kundalik hayotiy vaziyatlarda qanday ishlatilishini amalda namoyish etadi. O‘quvchilar darsliklarda kam uchraydigan, lekin og‘zaki muloqotda tez-tez ishlatiladigan so‘z va iboralarni tezroq o‘zlashtira oladi. Bunday yondashuv ularning real muloqotga tayyorlanishida muhim ahamiyatga ega. [1]

Shuningdek, filmlar tilning fonetik xususiyatlarini anglash, tinglab tushunish va talaffuz ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali hisoblanadi. Aktyorlarning turlicha talaffuzi, nutq tezligi va intonatsiyasi o‘quvchini haqiqiy til muhitiga yaqinlashtiradi. Buning natijasida o‘quvchi so‘zlarni eshitib, ularning to‘g‘ri talaffuzini o‘zlashtiradi hamda asta-sekin real nutqda qo‘llay boshlaydi.

Bundan tashqari, til o‘rganish jarayonida filmlar va seriallar o‘quvchiga o‘sha xalqning turmush tarzi, urf-odatlari va qadriyatlarini o‘rganish imkoniyatini beradi. Demak, kino mahsulotlari nafaqat lingvistik ko‘nikmalarni, balki madaniy kompetensiyani ham rivojlantiradi. Natijada tilni o‘rganish jarayoni yanada qiziqarli, mazmunli va samarali bo‘lib boradi.

Har bir inson o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan individual shaxsdir va ma’lumotlarni qabul qilish jarayoni ham shunga qarab farqlanadi. Kimdir eshitish orqali

tezroq o‘rganadi, boshqasi esa kitob o‘qish yoki matn bilan ishlash orqali bilim oladi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inson bir vaqtning o‘zida ham ko‘rib, ham eshitgan ma’lumotni ancha samarali eslab qoladi. Shu bois, chet tilini o‘rganishda filmlar tomosha qilish juda foydali usullardan biri hisoblanadi. Film va seriallar jarayonida o‘quvchi yangi so‘zlar, iboralar va idiomatik ifodalar bilan tanishadi, ularni eslab qolish imkoniyati esa yuqori bo‘ladi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, o‘rganuvchi o‘ziga yoqqan biror videoni tanlab, uni bir hafta davomida muntazam tinglasa va ko‘rsa, yanada yuqori natijaga erishadi. Eng asosiysi, videoni tomosha qilish bilan cheklanmay, undagi notiqlarning so‘zlarini ohang va talaffuz bilan birgalikda qayta-qayta takrorlash talab etiladi. Shu tariqa o‘rganuvchilar tilni tezroq tushuna boshlaydilar, nutqi esa yanada ravonlashadi. Mazkur metod ko‘plab tajribalar orqali sinovdan o‘tgan bo‘lib, samaradorligi isbotlangan. Shu sababli, chet tilini o‘rganishda Shadowing texnikasi nafaqat samarali, balki motivatsion jihatdan ham o‘quvchiga katta yordam beradi.[2]

Xulosa qilib aytganda, xorijiy tilni o‘rganishda filmlar va seriallar samarali, qiziqarli va qulay usullardan biridir. Ushbu usul yordamida o‘quvchi so‘z boyligini kengaytiradi, tinglab tushunish va talaffuz ko‘nikmalarini rivojlantiradi, shuningdek, til egalarining madaniyati bilan tanishadi. Shunday qilib, kino mahsulotlaridan foydalanish til o‘rganish jarayonini samarali tashkil etishda muhim vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yakubova, K. Sh. (2023). Using Movies, Series and Cartoons in Teaching Foreign Languages. Eurasian Research Journal, 5(2), 45–52.
2. Yusupova, Sh., & Khazratkulova, E. I. (2024). The Impact of Shadowing Technique on Students’ Pronunciation and Fluency. Language and Education Journal, 6(1), 77–85.
3. Rulina, N., Harefa, Y., & Syahputra, F. P. (2025). The Effect of Watching Frozen II Movie with English Subtitles on Students’ Vocabulary Acquisition. Lingua et Poetica, 8(1), 55-63.
4. Doan, V. K. (2023). The Effects of the Shadowing Technique on EFL Learners’ Speaking Skills. Journal of Knowledge, Learning and Society, 4(2), 115–127.
5. Maxmudova, K., & Saydullayeva, G. A. (2025). Film Watching as an Effective Method in Foreign Language Teaching. Scientific Journal of Modern Research, 11(1), 39–46.
6. Ismoilova, M. (2021). “Chet tilini o‘qitishda zamonaviy audiovizual vositalardan foydalanish.” O‘zbekistonda ta’lim va innovatsiyalar jurnali, №2, 85–90.